



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI QARORI**

2021 - yil 13 - oktabr

238-10-212-Q/21

Toshkent tuman hokimligi

### **Toshkent viloyati hokimining 2021-yil 6-avgustdagi 39-10-0-Q/21-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

Toshkent viloyatida sanoat salohiyatini yanada oshirish, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda “2021–2023-yillarda Toshkent viloyatining sanoat salohiyatini yanada oshirish hamda Toshkent viloyatining Piskent tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397-son qarori bilan Toshkent tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda va aholining ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida

#### **QAROR QILAMAN:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi “2021–2023-yillarda Toshkent viloyatining sanoat salohiyatini yanada oshirish hamda Toshkent viloyatining Piskent tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397-son qarori ijro va xizmat davomida foydalanish uchun qabul qilinsin.

2.Yuqoridagi qaror bilan;

2021-2023 yillarda Toshkent viloyatida sanoat sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxatida keltirilgan Toshkent tumaniga aloqador jami 17 ta loyihalar ijro uchun qabul qilinsin.

3.Tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (Q.Rixsiboev) Vazirlar Mahkamasi qaroriga kiritilgan sanoat sohasini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha choralari ko‘rsin.

4.Tuman investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (Q.Rixsiboev), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (U.Amanov) tegishli bo‘lim va tashkilotlar, loyiha tashabbuskorlari bilan birga bir oy muddatda manzilli ro‘yxatga kiritilgan loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlari, shu jumladan loyihalarni foydalanishga topshirishning aniq muddatlari ko‘rsatilgan tarmoq jadvallari ishlab chiqilishini ta’minlasin.

5. Tuman “Suv ta’minoti” MChJ (O.Norboev), tuman elektr ta’minoti korxonasi (S.Nazarov), tuman “Gaztaminoti” korxonasi (X.Xamidullaev) tuman hokimi o‘rinbosari-Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i (R.Haydarov) bilan birga aholini elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta’minlash bo‘yicha muxandislik kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, dastur doirasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari asosida ishlab chiqarish korxonalarining muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga o‘z vaqtida ulanishini hamda ularga mavjud resurs va texnik imkoniyatlardan kelib chiqib talab etiladigan tabiiy gaz va elektr energiyasini yetkazib berilishini ta’minlasin.

2021 — 2023-yillarda Toshkent tumanida sanoat sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari 1-ilovaga muvofiq.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari-investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i (R.Haydarov):

2021 — 2023-yillarda Toshkent tumanida sanoat sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

manfaatdor bo‘lim va idoralar, xo‘jalik birlashmalari va loyiha tashabbuskorlari bilan birga manzilli parametrlarning so‘zsiz bajarilishini, investitsiya loyihalarining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini hamda yangi ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

har chorak yakuniga ko‘ra dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning bajarilishi holatini Xalq deputatlari Toshkent tumani Kengashi yig‘ilishlarida muhokama qilib borish choralarini ko‘rsin;

har chorak yakuni bo‘yicha dasturdagi loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning natijadorligini yig‘ilishlarda muhokama qilib Toshkent viloyati hokimligiga axborot kiritib borsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari- investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i R.Haydarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**O.Рустамов**

Тошкент туман ҳокимининг  
2021 йил 13 октябрдаги  
238-10-212-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**2021 — 2023 yillarda Toshkent tumanida sanoat sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari**

T/r	Tuman nomi	Loyiha soni, birlik	Loyiha qiymati mlrd. so'm	Moliyalashtirish manbalari:				Ish o'rni
				o'z mablag'i, mlrd. so'm	bank krediti, mlrd. so'm	xorijiy kredit, mln. doll.	xorijiy investitsiya, mln. doll.	
<b>Jami</b>		<b>17</b>	<b>963,0</b>	<b>262,6</b>	<b>346,8</b>	<b>3,4</b>	<b>30,6</b>	<b>4 400</b>
1.	Toshkent tumani	17	963,0	262,6	346,8	3,4	30,6	4 400

Тошкент туман ҳокимининг  
2021 йил 13 октябрдаги  
238-10-212-Q/21-сон қарорига  
2-илова

**2021 — 2023 yillarda Toshkent tumanida sanoat sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining**

**MANZILLI RO‘YXATI**

T/r	Loyiha tashabbuskori	Loyihaning nomi	Loyiha qiymati*, (mln. so‘m)	Moliyalashtirish manbalari				Ish o‘rni	Ishga tushish muddati	Loyihani amalga oshirishga ma'sul
				o‘z mablag‘i, (mln. so‘m)	bank krediti, (mln. so‘m)	xorijiy kredit, (ming doll.)	xorijiy investitsiya, (ming doll.)			
	<b>Toshkent tumani</b>		<b>963 022</b>	<b>262 614</b>	<b>346 808</b>	<b>3 400</b>	<b>30 600</b>	<b>4 400</b>	-	-
1.	«Agromaks Tashkent» MChJ	meva-sabzavotni qayta ishlash va agrologistika markazi tashkil etish	528 320		312 000		20 800	3 000	01.01.2023	Toshkent tumani hokimligi
2.	«Asia-lion» MChJ	polimer quvurlar, fittinglar va dekor panellar ishlab chiqarish	84 240	52 000			3 100	400	01.11.2022	Toshkent tumani hokimligi
3.	«Corona mushrooms» MChJ	tikuvchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish	8 500	7 000	1 500			40	01.09.2021	«Milliy bank» AJ
4.	«Healing herbs jm» MChJ	eksportbop oshqovoq kukuni ishlab chiqarish	29 020	2 500		2 550		50	01.09.2021	«Asaka» banki
5.	«Tex inno» MChJ	sintetik tollali matolar ishlab chiqarish	9 340	500		850		30	01.12.2022	«Asaka» banki

6.	«Keng makon» MChJ	mebel jihozlari ishlab chiqarishni kengaytirish	4 982	3 774	1 208			10	31.12.2021	«Ipak yuli» AITB
7.	«Trinity technology» MChJ QK	gaz plita, elektr pechlar ishlab chiqarishni kengaytirish	10 900	10 900				10	30.12.2021	«Ipoteka-bank» ATIB
8.	«Penoplast luks» MChJ	penoplast ishlab chiqarish	25 800	5 000		2 000		30	01.09.2021	Toshent tumani hokimligi
9.	«Sofita» MChJ	akustik panellar ishlab chiqarish	9 900	4 700		500		40	01.12.2021	Toshkent tumani hokimligi
10.	«Rexau Eurasia» MChJ	profil mahsulotlari ishlab chiqarish	53 000	21 800		3 000		200	30.12.2021	Toshkent tumani hokimligi
11.	«Trubchevskiy shokolad» MChJ	qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	12 480			1 200		30	30.12.2021	Toshkent tumani hokimligi
12.	«Green eco service» MChJ	maishiy chiqindilarni qayta ishlash klasteri, issiqxona, bog' va mahsulotlarni saqlash omborxonasi tashkil etish	46 200	46 200				200	01.12.2022	Toshkent tumani hokimligi
13.	«Smart business plyus» MChJ	qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish	40 000	40 000				200	01.09.2021	Toshkent tumani hokimligi
14.	«Sun flower seeds» MChJ	kungaboqar urug'idan yog' va omuxta yem ishlab chiqarish	10 140	9 240	900			40	01.04.2022	«Agrobank» ATB
15.	«Mehnat agrofirmasi» MChJ	yem ishlab chiqarishni kengaytirish	4 100	1 250	2 850			5	01.09.2021	AT «Aloqabank»

16.	«Mehnat agrofirmasi» MChJ	kungaboqar yogʻini ishlab chiqarish va uni qadoqlash	26 100	7 750	18 350			100	01.11.2021	AT «Aloqabank»
17.	«Mehnat agro klaster» MChJ	uzum mahsulotlarini qayta ishlash	60 000	50 000	10 000			15	01.01.2022	«Oʻzsanoatqurilishbank» ATB